



Epik asarlarda ramziy obrazlarning o'rni (Xurshid Do'stmuhammadning hikoya va qissalari misolida)

Jalilova Zarina Sadriddinovna

Buxoro shahridagi 41–maktabning

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

jalilovazarina9389@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda adabiy tafakkur jarayonida o'zining alohida mavqeyiga ega bo'lgan yozuvchi X.Do'stmuhammadning epik asarlaridagi ramziy obrazlar va ularning tahlili haqida ba'zi mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: epik asar, konflikt, xarakter, qahramon, ruhiy tahlil, psixologiya, psixologik tahlil, qahramon tasviri, idrok va tafakkur masalasi, ramziy obraz, qiyoslash metodi

Kirish: Badiiy adabiyotning shakllanishida, taraqqiy etishida epik asarlarning o'rni beqiyos. Bizga ma'lumki, epik asarlar sirasiga hikoya va qissa asosiy o'rinsa turadi. Hikoya badiiy adabiyotimizda kichik epik janr, qissa esa o'rta epic janr hisoblanadi. Hikoya janri qadim an'analarga ega. Qadimda hikoya janri folklor asarlarida bayon usulida ifoda etilgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda yuzaga kelgan XVI asrda yaratilgan Poshshoxojaning "Gulzor" va "Miftohi ul –adl" asarlari o'zbek hikoyachiligining gullab yashnashiga, rivojlanishiga asos bo'ladi. Milliy adabiyotimiz va nasrimiz jadal sur'atlarda taraqqiy etdi. Bunda yozuvchi va adiblarimizning yaratilgan asarlari o'rni beqiyos. Badiiy adabiyot rivojlangan sari unda ilmiylikka ehtiyoj seziladi. Hikoya janrining rivoj topishida



dastlab G'afur G'ulom, Oybek, Mirkarim Osim, Nosir Fozilov, Farhod Musajonov, O'lmas Umarbekov va boshqa adiblarimiz o'zlarining o'z ijod namunalari orqali o'z hissalarini qo'shishdi. Ular yaratgan asarlarida qahramonlarning badiiy tasviri, ruhiy iztiroblari, insoniylik, milliy qadriyatlar uyg'unligi kabi munosabatlar yetakchiligini ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Bugungi o'zbek hikoyachiligi va qissachiligida ramziy obrazlar namunasi tobora ko'p uchramoqda. Jumladan o'zbek hikoyachiligida Erkin Azam, Xurshid Do'stmuhammad, Sobir O'nar Abduqayum Yo'ldosh singari ijodkorlar qalam tebratmoqda. Istiqlool adabiyoti mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham biror qolipga solinmagan, tabiiy ravishda taraqqiy qilayotgan estetik hodisadir. Mustaqillik davri adabiyotining yana bir muhim xususiyati, ijodkorning ko'ngil ishiga aylangan adabiyotning shakllanish bosqichida, badiiy jihatdan turli darajadagi asarlar yaratila boshladi. Chunki ijod erkinligi, avvalo, yozish erkinligi demakdir. Ular yaratgan asarlar hikoya, qissa, romanlar ham uslub ham shakl jihatidan boshqalardan farq qilib kelmoqda va yangi davr talabi tufayli o'zgarib bormoqda. Olima Adabiyotshunos Marhabo Qo'chqorovanning ilmiy qarashicha "O'zbek hikoyachiligi ikki xil uslubiy yo'nalishda rivojlanyapti: an'anaviy realistik va modernistik. Zamonaviy o'zbek yozuvchilarimiz jahin adabiyoti namunalari bilan tenglasha oladigan hikoylarni yaratib kelmoqda. Ular o'z hikoyalarida yangicha ramziy obrazlardan, uslub jihatidan g'arb adabiyoti namunalarining usullaridan keng foydalanib kelmoqdalar. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, psixologizmning yangicha uslubda tasviri vositalari, romantik to'qima obrazlar uchraydi." X.Do'stmuhammad uslubining o'ziga xosligi, qahramonlarining hayotiyiligi, asarlarining o'qimishliligi va yuqori saviyadaligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Adib asarlarining badiiy xususiyatlari to'g'risida talaygina ijobiy fikrlar bildirish mumkin.

Shu ma'noda so'g'gi o'n yillik o'zbek hikoyachiligida X.Do'stmuhammadning hikoyalari ham g'arb adabiyoti namunalari bilan bimalol tenglasha oladigan asarlar sirasiga



kira oladi desak xato bo'lmaydi. Binobarin uning "Jim o'tirgan odam" hikoyasida institutda uzoq vaqt xizmat qilgan olim. Qurbonali obrazining hayoti, uning naqadar tuban xarakterli shaxs ekanligi, ya'ni voqea-hodisalarni, ko'rib bilib turib bilmagankikka olishi kabi jamiyatimizda kun kechirayotgan shaxslarga xos loqaydlik, beparvolik, ijtimoiy salbiy illati badiiy muhokamaga tortilgan. Bunday loqaydlok yozuvchining "Nigoh" nomli qissasining bosh qahramoni Bek obrazida ham uchraydi. Hikoya qahramomni Qurbonali aslini olganda, hayotining birinchi qismida botir, gapga chechan edi. Ammo hayotining ikkinchi qismida og'ziga qulf solib yuradi xuddi otasidek, shunda onasining vafotidan so'ng unga noma'lum bir shaxsning har kun kelib ramziy ma'noda uni jamiyatda olimlik maqomini olgani ammo insoniylik maqomiga erisha olmaganini muhkama qiladi. Qurbonali har kuni kutilmaganda oldidan chiqib marakadagi voqeani eslatuvchi bu kishini "Kimsan" deb ataydi. Nazarimizda Kimsan obrazi bejiz yozuvchi tomonidan o'ylab topilmagan. Kimsan obrazi hikoyaning bosh qahramoni Qurbonaliga, uning bu dunyoda yashab sen kimsan bu dunyoda yashab sen nimaga erishding, sen nimaga intilding, degan savollarni o'rta tashlaydi. Demak, Kimsan hikoya syujetini uning tuzilishini ochish uchun muhim ochqich vazifasini o'taydi va u mantiqli obraz sifatida namoyon bo'ladi. Kimsanning kinoyali gap-so'zlaridan chunonchi, "jim o'tirgan odam eng xavfli odam" degan xulosasidan keyin, Qurbonali xuddi oyog'I kuygan tovuqdek tipirchilab qoladi va u vijdon azobidan qiynaladi. Adib Qurbonali misolida "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin" degan falsafani ilgari suradi. Eng asosiysi hikoyada millatning tili qulf bo'lib qolishiga asosiy sabab Sho'ro davri undagi insonlar hayoti taqdiri xuddi Qurbonalining otasidek edi. Yozuvchi jamiyatda "Usti yaltiroq ichi qaltiroq degan maqolni ham bejizga keltirmaydi. Qurbonalidek hashamatli, ziyoli ko'ringan insonlar har doim ham aqli raso, oqil inson bo'lib chiqavermasligiga urg'u beradi. Xuddi hashamatli binolar singari, odamiylik unsurining yo'qolib borayotganini uqtirmoqchi bo'ladi. Qurbonali otasidek bo'lib qolishdan qo'rqib, og'iz ichidagi bir parcha etni dushman deb biladi va umri davomida ichidagilarni sirtiga chiqarmaydi. Bu esa uning eng katta nuqsoni va xatosi edi. O'rni kelganda Adib



Qurbonalini satirik obraz sifatida ham tasvirlaydi. Uning ich ichidan kulib ,sirtiga chiqarmasligi buning yaqqol isboti ekanligini ko'rsatadi .Kuzatganimizdek ,Xurshid Do'stmuhammad hikoyasida chuqur ma'no va falsafa mavjud. Bundan tashqari adibning "Oq libos" nomli hikoyasida xonliklar hayotidan lavhalar aks ettirilgan. Undagi Yunusxo'ja obrazi orqali kitobxonlarga qanday xulosa chiqarish mumkinligini havola etadi. Bu esa o'z navbatida adibning o'ziga xosligini qahramonlarning realligini ,uning asarlarini saviyasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Uning hikoyalari mazmunan turfa bo'lishiga qaramay barchasida chin insoniy fazilatlar ulug'langan. U insondagi yomon illatlarni qoralab, ularni yaxshi fazilatga aylantirish haqida kitobxonga o'git beradi. Balki shuning bilan, u el orasida o'zining muayyan mavqega ega bo'ldi, kitobxonlar qalbidan munosib o'rin oldi.

Xulosa. Adib aytmqchi bo'lganlarini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ishoralar, ramz va misollarga murojaat qilish orqali badiiy yuksak darajada ifoda etdi. Yozuvchi o'z qahramoni orqali xilma-xil insoniy qiyofalarni ochib bergan. Adib odamlarni boricha, qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha: ziddiyatli va murakkab qalb egasi sifatida qabul qilish zarurligini, muhimi, insonni anglash ekanini badiiy asoslab berdi. Shu boisdan ijodkorni bugungi kunda betimsol tafakkur namunalarini yaratishga erishayotgan iste'dod sohiblaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

Zamonaviy o'zbek hikoyalari shakl va mazmun jihatidan tobora o'sib ,rivojlanib bormoqda shuningdek o'zbek hikoyalarida estetik yangilanishlar ,komillik ,halollik ,ma'rifatparvarlik estetik sifatlari namoyon bo'lmoqda .Ularni ilmiy asosda o'rganish bugungi kunning dolzarb masalasidir.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. X.Do'stmuhammad "Beozor qushning qarg'ishi".-T,2006 y.137-bet
2. Дўстмуҳаммад Х. Ижод кўнгил мунавварлиги. –Т.: 2011. -220 б.
3. Дўстмуҳаммад Х. Озод изтироб қувончлари. –Т.: Шарқ, 2000. -216 б.
4. Дўстмуҳаммад Х. Рамзий образлар яратиш // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1990, 3-сон.
5. Дўстмуҳаммад Х. Ҳикояларда ҳаёт ва ҳаёл ҳақиқати // Шарқ юлдузи, 2011, 4-сон, 141-146-бетлар.
6. Дўстмуҳаммад Х. Ижод эрки // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1990, 5-сон.
7. Норматов У. Бугунги насримиз тамойиллари // Жаҳон адабиёти, 1997, 3-сон, 152-167-бетлар.
8. Норматов У. Бугунги насримизнинг етакчи тамойиллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 3-сон, 34-бет.